

**ТЕМУР ТУЗУКЛАРИНИНГ ХУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР
ПРОФИЛАКТИКАСИДАГИ АҲАМИЯТИ**

Fayzullayev Husan Yoqubjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi

3-o'quv kursi 312-guruh kursanti safdor.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11158170>

Annotation. Bugungi kunda huquqbuzarliklarni oldini olish, hududlarda fuqarolarning huquqlari va erkinlarini ta'minlash hamda kafolatlash borasida "Temur tuzuklari" asarida yoritilgan o'gitlar, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan maslahat va vasiyatlarini o'rGANISH.

"Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan tuzuklar, davlat boshlig'i to'g'risidagi qoidalar, davlatni boshqarishda hamda davlat xizmatlarini amalga oshirishda yuzaga keladigan faoliyatda jinoyatchilikni oldini olish va huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish xususiyatlari

Tayanch so`zlar: "Temur tuzuklari" asarining O'rta osiyoda mamlakatlar rivojlanishidagi o'rni; "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan tuzuklar; Tuzuklarning hozirgi zamondagi roli; "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan tuzuklarning huquqbuzarlik profilaktikasini amalga oshirishdagi ahamiyati.

SIGNIFICANCE OF THE TEMUR REGULATIONS IN CRIME PREVENTION

Abstract. To study the teachings, advices and wills of educational importance in the work "Temur's Laws" regarding the prevention of crimes, ensuring and guaranteeing the rights and freedoms of citizens in the regions.

The rules described in the work "Tuzuklari Temur", the rules about the head of state, the features of the prevention of crime and the prevention of offenses in the activities that arise in the management of the state and the implementation of public services

Key words: the role of "Timur's Laws" in the development of countries in Central Asia; The rules described in "Temur Rules"; The role of Tuzuk in modern times; The significance of the rules described in the work "Temur's Laws" in the implementation of crime prevention.

ЗНАЧЕНИЕ ПОЛОЖЕНИЙ ТЕМУРА В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕСТУПНОСТИ

Аннотация. Изучить поучения, советы и завещания, имеющие воспитательное значение в произведении «Законы Темура» относительно предупреждения преступлений, обеспечения и гарантирования прав и свобод граждан в регионах.

Правила, изложенные в произведении «Тузуклари Темур», правила о главе государства, особенности предупреждения преступности и предупреждения

правонарушений в деятельности, возникающей при управлении государством и осуществлении государственных услуг.

Ключевые слова: роль «Законов Тимура» в развитии стран Центральной Азии; Правила, описанные в «Правилах Темура»; Роль Тузука в наше время; Значение правил, описанных в труде «Законы Темура», в осуществлении профилактики преступности.

Kirish: Hozirgi kunda nafaqat mamlakatimizda balki, markaziy osiyo va boshqa horijiy mamlakatlarda olib borilayotgan huquqbazarlik profilaktikasini amalga oshirishda Amir Temur tuzuklari ma`lum darajada katta ro`l o`ynamoqda. Chunki buyuk bobokalonimiz paytida olib borilgan huquqbazarlikka qarshi kurash va jinoyatlarni oldini olishga doir chora tadbirlar va amaliy faoliyatlardan foydalanimoqda.

Amir Temur shaxsini idrok etish–tarixni idrok etish demakdir. Amir Temurni anglash–o`zligimizni anglash demakdir. Amir Temurni ulug`lash–tarix qa`riga chuqur ildiz otgan tomirlarimizga, madaniyatimizga, qudratimizga asoslanib, buyuk kelajagimizni, ishonchimizni mustahkamlash demakdir.

Bu haqda gapirganda, Amir Temurning davlatchilik va diplomatiya, harbiy mahorat, bunyodkorlik salohiyati, ilmu fan, san`at va me`morchilikka oid qarashlari, hayotning ma`nomazmuni, insonni ulug`laydigan ezgu ishlar haqida bildirgan fikrlari, dinu diyonat va adolatni joyiga qo`yish, sultanat ishlarini kengash va tadbir asosida amalga oshirish, har bir masalada uzoqni ko`zlab, el manfaatini o`ylab ish tutish bilan bog`liq ibratli fazilatlarini alohida ta`kidlash o`rinlidir. Aynan mana shunday masalalar Sohibqiron tafakkurining mahsuli bo`lgan "Temur tuzuklari" asarida har tomonlama aniq, ishonarli va ta`sirchan tarzda yoritilgan, desak, haqiqatni aytgan bo`lamiz.

Asosiy qism. O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti bo`lmisdh Islom Abdug`aniyevich Karimov bejizga Amir Temur hamda ul buyuk zotning tuzuklari haqida quyidagi fikrlarni aytmaganlar:

Shaxsan men Sohibqiron bobomiz bizga meros qilib qoldirgan "Tuzuklar"ni o`qisam, xuddiki o`zimga qandaydir katta ruhiy kuch-quvvat topgandek bo`laman. Har bir satri bir umr el-yurt, sultanat tashvishi bilan yashagan fidoyi inson, ulkan davlat arbobining keng miqyosdagi o`y-fikrlari, hayot va kurash tajribasi, mushohadasi, ba`zan esa dardli va iztirobli kechinmalari bilan sug`orilgan bu asarda qanday teran ma`no mujassam ekanini ma`rifatli, zukko kitobxon yaxshi angraydi, albatta. Men o`z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan hayot hikmatlarining qanchalik to`g`ri ekaniga ko`p bor ishonch hosil

qilganman. Masalan, "Tajribamda ko‘rilgankim, azmi qat’iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshirokdir", degan fikrlar bugungi kunda ham naqadar dolzarb ekani barchamizga ayon. Yoki u zotning: "Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur", degan ko‘rsatmalarida hozirgi notinch zamon uchun, XXI asr siyosatdonlari uchun ham har jihatdan ibratli fikrlar borligini ta’kidlash joiz.

Bugungi murakkab va tahlikali davrda bu kitobni qayta-qayta mutolaa qilish, uning mag‘zini chaqish birinchi galda rahbar, yetakchi bo‘lishdek mas’uliyatli vazifani o‘z zimmasiga olgan odamlar uchun, qolaversa, har qaysi ziyoli inson uchun bag‘oyat foydali ekani haqida ortiqcha gapirib o‘tirishga hojat yo‘q, deb o‘layman.

Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo‘yib, tushunib, chuqur anglab o‘qisa, ularning qalbida milliy g‘urur tuyg‘usi yuksaladi, o‘zining qanday buyuk zotlarning avlodini ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo‘lib voyaga yetadi.



Agarda biz hozirgi kundagi huquqbazarliklarning profilaktikasini amalga oshirishda Temur tuzuklariga yuzlansak:

Turli mamlakatlar aholisiga munosabat, ularning ahvoldidan xabardor bo‘lish, avliyolar va din peshvolarining mozorlarini tuzatish, vaqf hamda nazr ishlarini tartibga keltirish tuzuki

Amr etdimki, fath etilgan har bir mamlakatdagi sipohiyalar (o‘z ixtiyorlari bilan) panohimga kelsalar, ularni navkar qilib, (askarlarim safidan) joy bersinlar. U diyorning raiyatini yomon hodisalardan, qatl va asiru band etilishdan, talanishdan muhofaza qilsinlar. Ularning mol-mulkini, buyumlarini talon-torojdan saqlasinlar. O‘scha mamlakatdan tushgan o‘lja mollar egalariga qaytarib berilishini tekshirsinlar.

Sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, akobir va ulug‘larni aziz tutsinlar. Beklar, oqsoqollar, dehqonlar^[1] va ekin maydonlariga ishlov beruvchilar ko‘nglini xushnud etib, o‘zlariga qaratsinlar.

Raiyatni umid va qo‘rqinch orasida tutsinlar. Gunohlari va qilmishlariga yarasha jazolasinlar. Menga bo‘ysungan mamlakatlarning sayyidlari, olimlari, shayxlari, fozil kishilari, darvishlari, zohidlarini suyurg‘ol, vazifa va oylik bilan siylasinlar. Faqiru miskin, nogironlarga nafaqa tayin qilsinlar. Mudarrislар va shayxlarga kundalik maoshlar belgilasinlar.

Avliyolar, din peshvolarining mozorlari va maqbaralariga vaqfdan mablag‘ ajratsinlar. U yerlarni palos, taom va chiroq bilan ta’milasìnlar. Birinchi navbatda amir al-mo‘minin, mard kishilar shohi Ali ibn Abu Tolibning, unga Ollohnинг karami va ehsoni bo‘lsin, muqaddas qabrlarini yaxshi sakdash uchun Najaf bilan hillani vaqf etib bersinlar. Imom Husaynning, Olloh undan rozi bo‘lsin, nurga cho‘mgan muqaddas mozori, avliyolar ulug‘i shayx Abdulqodir Jiloniyning^[2] muqaddas qabri, imomi a’zam Abu hanifaning, unga Ollohnинг rahmati bo‘lsin, maqbarasini, Bag‘dodda nurga cho‘mgan boshqa mashoyixlar, din peshvolari, ulug‘larning mozorlarini yaxshi saqlash uchun baholi qudrat Karbalo, Bag‘dod hamda ularning atrofidagi qishloqlar va boshqa joylardan vaqf sifatida yer-suv ajratsinlar. Imom Muso Kozim^[3], imom Muhammad Naqiy^[4], Salmon Forsiyarning^[5] nurli ravzalari uchun esa Jazoir^[6] ekin maydonlaridan va Madoin^[7] daromadidan vaqf belgilasinlar. Imom Ali ibn Musoning^[8] tabarruk ravzalari uchun Kutahbast va Tus shahri atrofidagi yerlardan vaqf ajratsinlar va palos, chiroq hamda kundalik yemish-ichmishlar belgilasinlar. Shuningdek, Eron va Turondagi shayxlarning mozorlari va qabrlari uchun har biriga alohida, nomma-nom nazru vaqflar ajratsinlar.

Yana buyurdimki, har bir mamlakat fath etilgach, u yerning gadolarini to‘plab, kundalik yemish-ichmishlar bilan ta’minlab, ularga biron ish bersinlar. Hamda barchasi tamg‘alansinlar, toki boshqa gadolik qilmasinlar. Agar tamg‘adan keyin ham gadolik qilgudek bo‘lsalar, ularni uzoq mamlakatlarga sotib yuborsinlar yoki haydasinlar. Shundagina gado zoti mamlakatimdan yo‘qoladi.

Bundan kelib chiqdi agarda davlat organlariga nisbatan xalqda ishonch paydo bo`lishini istasak va uni abadiy bo`lishini istasak xalqning holidan muntazam ravishda xabar olishimiz ayniqsa chet el fuqarolari va ahli ilmlarga nisbatan o`zgacha tarzda hurmat ehtirom ko`rsatish zarur hisoblanadi.

Mening dargohimga iltijo qilib, panoh istab kelgan turku tojik, arabu ajam toifalaridan bo`lganlar haqidagi tuzuk:

Birinchi navbatda, mazkur toifa va tabaqalardan bo`lgan sayyidlar bilan ulamoni izzat-hurmat qilishni, har qanday istaklari bo`lsa darhol muhayyo etib, muqarrar ravishda ularning ahvoldidan xabardor bo`lib turishni buyurdim. Agar sipohiyilar toifasidan bo`lsalar, xizmat o`rinlarini belgilab, hol-ahvollariga yarasha ehtiyojlari ta'minlansin. Agar kasbu hunar va ma'rifat axdlaridan bo`lsalar, bundaylarga sultanat korxonalaridan yumush berilsin. Bulardan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o`z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. Yana shunday amr qildimki, sarmoyasi qo`lidan ketib qolgan savdogarga o`z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo`lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug“, asbob (mehnat quroli) tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalar bilan ta'minlansin va yordam berilsin.

Har toifa va har sinfdan kimki o`z ixtiyori bilan sipohiylik xizmatiga kirishni istasa, uni harbiy (xizmat)ga olsinlar. Asil va shijoatli sipohiyzoda qaysi toifadan bo`lmasin, unga o`rin berib, xizmatiga va ishiga yarasha tarbiyat qilsinlar.

Yana amr etdimki, uzoq-yaqindan biron kishi kelib, mening majlisimga kirar ekan, qaysi toifadan bo`lsa ham, davlatim dasturxoni ne`matidan uni mahrum qilmasinlar.

Kimki huzurimga kiritilsa va ko`zim unga tushsa, holiga yarasha hurmatlab, sovg`a-salomlar bilan kuzatsinlar. Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo`lsa ham, uni kechirsinlar. Ikkinci, uchinchi marta yana gunoh yo`liga kirsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar.

Bundan kelib chiqdi IIO xodim sifatida bizga murojaat qilgan barcha toifadagi shaxslarga birdek muomala qilib, har bir shaxsni murojaatini qonuniy tartibda ko`rib chiqishimiz lozim hisoblanadi. Bu masalada aslo tarafkashlikka, poraxo`rlikka va boshqa turdag'i yomon holatlarga aslo yo`l qo`ymasligimiz shart va zarurdir. Aks holda xalqning davlatga nisbatan ishonchi susayib, huquqbazarliklar va jinoyatlarni bemalol sodir etish holatlari kuzatiladi. Chunki xalq o`ylaydiki, baribir ham IIO lari xodimlarini moddiy qiymat va manfaat evaziga o`z tomoniga og`dirish imkonini bor deb.

Xulosa: Hozirgi kunda olib borilayotgan huquqbazarliklarga hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda Amir Temur tuzuklarining ahamiyati bir necha asrlar o`tgan bo`lsada o`z ahamiyatini hali hanuz yo`qotmagan hisoblanadi.

REFERENCES

1. O`RQ 371-sonli “Huquqbazarliklar profilaktikasi to`g`risida”gi qonuni
2. <https://temurtuzuklari.uz>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari
4. <https://turkic.world/uz/articles>
5. <https://society.uz/uz/facsimile-publication> va boshqa adabiyotlar